

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda bank xizmatlari bo‘yicha
tariflarga kiritilayotgan qo‘shimcha**

1. II-bo‘lim “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda bank xizmatlari bo‘yicha paket xizmatlari 1-bob “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda Mikro va kichik biznes subyektlari uchun xizmat ko‘rsatish paketlari quyidagi mazmundagi 10-paragraf bilan to‘ldirilsin:

10-§. “Konstruktor” paket xizmati

| № | Xizmat turlari | Qiymati / tavsifi |
|----------|--|--|
| 1. | Mijoz (segment) | Mikro va kichik biznes subyektlari |
| 2. | Xizmat turining maqsadi | Mikro va kichik biznes segment vakillari uchun hisob kassa amaliyotlarini ko‘rsatishda qulayliklar yaratish |
| 3. | Paket xizmati amal qilish muddati | 12 oy |
| 4. | Xizmat turini taqdim etish shakli | Bank tarmoqlari (BXO/BXM) orqali |
| 5. | Paket xizmati oylik abonent to‘lovi | Mijoz tomonidan tanlangan bank komissiyalari hamda amaliyotlar miqdoridan kelib chiqib belgilanadi |
| 6. | Mijozlarga ma’lumotnomalar, tasdiqnomalar va ko‘chirma nusxalarini berish | Bepul |
| 7. | O‘zsanoatqurilishbank ATB tizimi ichida milliy valyutadagi bank hisob varaqlari bo‘yicha mablag‘larni o‘tkazish (debet aylanma) | Debet aylanmaning bir oylik miqdori va bank komissiyasi mijoz tomonidan belgilanadi <i>(minimal 0,0% - maksimal 0,3%)</i> Mijoz belgilagan miqdordan oshgan qismi uchun o‘tkazma summasidan – 0,1% |
| 8. | Boshqa tijorat banklariga milliy valyutadagi bank hisob varaqlari bo‘yicha mablag‘larni o‘tkazish (debet aylanma) | Debet aylanmaning bir oylik miqdori va bank komissiyasi mijoz tomonidan belgilanadi <i>(minimal 0,0% - maksimal 0,3%)</i> Mijoz belgilagan miqdordan oshgan qismi uchun o‘tkazma summasidan – 0,1% |
| 9. | Boshqa maqsadlar uchun naqd pul mablag‘lari berilishi | Olinadigan naqd pulning bir oylik miqdori va bank komissiyasi mijoz tomonidan belgilanadi <i>(minimal 0,2% - maksimal 1,0%)</i> Mijoz belgilagan miqdordan oshgan qismi uchun summadan – 1% |
| 10. | Korporativ karta hisobvarag‘ini yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvarag‘idagi mablag‘lari hisobiga to‘ldirish | To‘ldiriladigan mablag‘ning bir oylik miqdori va bank komissiyasi mijoz tomonidan belgilanadi <i>(minimal 0,4% - maksimal 0,5%)</i> |

| № | Xizmat turlari | Qiymati / tavsifi |
|------------|---|--|
| | | Mijoz belgilagan miqdordan oshgan qismi uchun summadan – 0,5% |
| 10. | Chiqarilgan har bir elektron to‘lov uchun | 1 000 so‘m + QQS |
| 11. | Bank masofaviy xizmat turlariga ulanish/ qayta ulanish/ oylik abonent to‘lovi - “Bank-mijoz” - “SMS-banking” - “Mobil Banking” - “SQB Business” | Bepul |
| 12. | Mijozning bank hisobvarag‘idagi xorijiy valyuta mablag‘larini respublikadan tashqariga o‘tkazish | O‘tkazma summasidan 0,15% (minimal miqdori 300 000 so‘m + QQS maksimal miqdori 6 000 000 so‘m + QQS) |

Eslatma:

Ushbu paket xizmatida ko‘rsatilmagan bank xizmatlari uchun to‘lovlar amaldagi “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda bank xizmatlari bo‘yicha tariflarga muvofiq amalga oshiriladi.

Paket xizmati amal qilish muddati tugagandan so‘ng mijoz avtomatik tarzda amaldagi “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda bank xizmatlari bo‘yicha tariflarga o‘tadi.

Ushbu paket xizmatidan mijozlarning navbatdagi muddatlarga yangi shartnoma tuzish orqali foydalanish huquqi cheklanmagan.

Biznes Bosh direktori
v.b:



T.Norov

№ 387

2026 yil «11» «may»

kelishuvchilar: A.Xujamuratov, O.Kasimov , Y.Soy, D.Mamadaliyev, A.Abdumajidov, Y.Sultanov, A.Yoqubjonov, D.Shamirzayev, B.Mirzaraximov, K.Urakov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=iJ77bS86&id=b37a1983-1f9c-49dc-b796-79511b52209d>